

AMIRIY LIRIKASIDA NAVOIYGA MUXAMMASLAR

Dilmurod Asqarov

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti

va folklori instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14160996>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari, xususan, Amiriy ijodida muxammas adabiy shaklining o'rni ochib berilgan. Amiriy muxammaslarini yaratishda ustoz salafлари Lutfiy, Fuzuliy, Jomiy, Navoiy g'azallaridan unumli foydalangan. Muxammas shakllarining har ikki turida ijod qilgan Amiriyning taxmislari badiiy jihatdan yetuk namunalar hisoblanadi. Navoiy g'azallariga bog'langan tazmin muxammaslarning vazn, qofiya, badiiy san'at jihatidan tahlillari asosida muxammasnavislik mahorati ochib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: adabiy muhit, o'zbek adabiyoti, mumtoz adabiyot, badiiy ijod, musammat, muxammas, obraz, ifoda usuli, vazn, qofiya, band.

Qo'qon adabiy muhiti o'zbek mumtoz adabiyoti tarixining alohida bosqichini tashkil etadi. Uning vujudga kelishi, rivojlanishi va yaxlit bir adabiy muhit darajasiga ko'tarilishi Qo'qon xoni Amir Umarxon nomi bilan bog'liq. Ma'lumki, o'zbek adabiyoti tarixini "saroy adabiyoti"dan ajratib olib tasavvur qilish mumkin emas. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi o'zbek so'z san'atining zabardast namoyandalari ijodi bevosita saroy muhiti bilan bog'liq bo'lgan edi. Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ubaydiy, Feruz kabi hukmdorlar o'zlari badiiy ijod bilan Shug'ullanibgina qolmay, fan, madaniyat va adabiyot taraqqiyotiga homiylik qilganlar. O'zbek mumtoz adabiyotining asosiy qismi saroyda va unga bog'liq holda yaratilgan.

Qo'qon adabiy muhiti shoirlari o'zlariga ustoz deb bilgan ulug' salafi hazrat Navoiyning ijod mahsullaridan ta'sirlanganlar. Bu ta'sirni Qo'qon adabiy muhiti vakillari asarlarining mavzu doirasi, obrazlar sistemasi, fikrni bayon etish usuli kabi shakllarida ko'ramiz. Salafi g'azallariga bog'langan tatabbular, tazminlar va muxammaslar esa qo'qonlik ijodkorlarning ustoziga muhabbati hamda ustoz maktabidan o'rganish, she'r yozishda mahorat qozonish omilidir.

"Muxammas bog'lash shoir ijodiy doirasining kengayishiga, o'tmishdagi ilg'or shoirlar ijodi bilan qiziqishning oshishiga, ular qoldirgan ijodiy tradisiyani egallashga va ularning ilg'or fikrlarini xalqqa yetkazishga xizmat qilgan". [5.89]

"Hech qayerda muxammaschilikka berilish Xorazmdagichalik ko'zga tashlanmaydi", [7.45]- deb yozgan edi navoiyshunos olim A.Hayitmetov. Bu jihatdan Amiriy boshchiligidagi Qo'qon adabiy muhiti vakillari ham sira kam emasligini, bu muhitda ham muxammasnavislik yuksak bir cho'qqiga chiqqanligini ham e'tirof etish kerak. V.Mo'minova so'zlari bilan aytganda, "klassik shoirlar muxammas janriga o'zlarining eng yaxshi g'oyalarini singdirish bilan birga, bu davrda yuz bergan voqea-hodisalardan olgan o'z taassurotlarini g'azalga nisbatan chuqurroq ifodalaganlar". [3.127] Shuni ham nazardan soqit qilmaslik kerakki, "Navoiyga muxammas bog'lash jiddiy va mas'uliyatli ish. Chunki Navoiyga muxammas bog'lagan shoir o'zi qo'shgan satrlarida Navoiy darajasida fikr, mazmun chuqurligiga erishishi, badiiy tasvir sohasida ham unga yaqinlashishi kerak". [6.14]

"Majmuai shoiron"da Navoiyga izdoshlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu buyuk shoir g'azallariga bog'langan muxammaslar va tatabbularda ko'rinadi. Tazkirada Amiriyning Navoiy

g'azaliga bog'langan bir muxammasi bor. Ushbu taxmis haqida amiriyshunos olim Z.Qobilova o'zining nomzodlik dissertasiyasida¹ qisman to'xtalib o'tganlar.

Qo'qon adabiy muhitida muxammas yozish ham nihoyatda rivojlangan. Shoirlar Amiriy va bir-birlarining g'azallariga ham, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy kabi buyuk salaflarining g'azallariga ham ko'plab taxmislar bog'laganlar, ayni paytda, mustaqil muxammaslar ham ijod qilganlar. Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Muznib, Fazliy, Nola, Xotif, Ma'yus, Ramziy, Kiromiy, Shavqiy, Sharifiy, Nozik, Jaloliy kabi deyarli barcha shoirlar ijodida muxammas namunalariga duch kelish mumkin. Masalan, Amiriyning o'zi Navoiyning 24 g'azaliga taxmis bog'lagan, Shuningdek, Kamol, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil, Zaliliy, Nobiy g'azallariga muxammaslar yozgan. O'zining alohida muxammaslari bilan qo'shib hisoblaganda shoir devonida jami 60 ta muxammas mavjud. Alisher Navoiyning to'rt devonni o'z ichiga olgan "Xazoyin ul-maoniy" sida 10 ta muxammas mavjudligini hisobga olsak, Amiriy ijodida va Qo'qon adabiy muhitida muxammas janrining qanchalik katta o'rin tutgani o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Navoiy va Fuzuliy g'azallariga Uvaysiy, Nodira, Ramziy, Kiromiy, Ma'yus, Xotif va boshqa shoirlar ham ko'plab muxammaslar bog'laganlar.

Amiriy Navoiyning "Ko'lum o'rtansun, agar g'ayringga parvo aylasa", "Sahldur to'bo demak, ra'no niholingni ko'rub", "Lolazor ermaski, ohimdan jahonga tushdi o't", "Botqali xoki tanimg'a novaki ishqing kushoq", "O'yla hijron toshlarin yog'durda charxi tezgard", "Yo'q damekim furqati jonimg'a bedod aylamas", "Muhabbat shevasining lozimi ajzu niyoz ermish", "Ko'ngullar quti shirin dostoning", "Bo'ldi qotil ko'z bila zulfi siyahkori aning", "vah, nadur maydonda har dam azmi javlon aylamak?", "Donayi xoling bila ko'nglum qushin qom aylading", "G'am xazoni zohir etmish chehrayi zardim mening", "Ohimni sarsar aylabon ashkimni to'fon aylading", "Latofat oyi ul yuz, shomi savdo sunbuli nobing", "Ishq sirrin hajr asiri notavonlardin so'rung", "Muvofiq keldilar, bo'lmish magar Navro'z ila bayram", "Charx ayirdi tez etib nola'mni ham, ohimni ham", "Hajr qonim to'kkudekdur, bo'ylakim zor o'lmisham", "Azal naqqoshi tarh aylarda gul bargi namudorin", "Masihodin labing afsah, quyoshdin orazing ahsan", "Balo dashti aro Majnun maningdek ko'rmamish davron", "Orazing mushtoqidur bu ko'zki, bo'lmish dardmand", "Qasrning har kunguri uzra balo toshimudur?", "Ichib ul sho'x, gul-gul qildi la'li nob ila oraz" [1.634-406] misralari bilan boshlangan g'azallarida ifoda etilgan oshiqona, orifona va rindona ma'nolarni chuqur anglagan holda muxammas bog'lagan.

Ma'lumki, muxammas bog'lash shoirdan juda katta mahorat talab qiladi. Bunda taxmis bog'lanayotgan she'rning tub mohiyatini chuqur anglab etish, unda shakllangan mazmuniy butunlikni yana qismlarga bo'lish va mazkurlarni o'zaro birlashtirish, baytlarga qo'shilgan musallaslarni shu bayt va g'azalning umumg'oyasi bilan uyg'unlashtirish, baytlarda qo'llangan timsollar va badiiy tasvir vositalarini qo'shish, qisqasi, taxmis bog'lanayotgan g'azal darajasida yangi bir asar yaratish talab etiladi. Amiriyning Navoiy g'azaliga bog'langan muxammasi bu talablarga to'la javob beradi.

Navoiy g'azali majoziy ishq to'g'risida. Shu boisdan g'azalda oshiqning beparvo, bee'tibor va zolim ma'shuqaga iltijolari undan tarahhum qilishni o'tinish barobarida, uni vasf etish kabi usullar etakchilik qiladi. Shunga bog'liq holda, Amiriy bog'lagan musallas bandlar ham mazmunan ma'shuqani vasf etish, uning savdoyi oshiqning jununona muhabbatiga

¹ Қобилова З.Б. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол. фан. номз. дисс. ... – Тошкент, 2007. – 134 б.

e'tiborsizligini ko'rsatish, oshiq va ma'shuqa oralaridagi diltortar munosabatlarga urg'u berish oldingi rejaga chiqadi. Majoziy ishq va bu tufayli paydo bo'lgan vasf mazmuni Navoiy bilan Amiriy misralarida uyg'unlashish barobarida ma'shuqani real hayotga juda yaqinlashtirib boradi. Shu sababli, keyingi bendlarda qo'llangan badiiy timsollar, tasviriy vositalar ma'shuqani naqadar latofatli, ayni chog'da unga qul bo'lmoqqa-da orzumand lirik qahramon iltijolariga loqayd shaxs ekanligini ta'kidlashga bo'ysundirilgan:

Adamdan man qachon o'z ixtiyorim birla kelmishmen,
Jamoling shevasi birla vujudi izhor qilmishmen.
Gireboni sahardek choklik bag'rimni tutmishmen,
Tunu kun jilva qilma, ey, arusi dahr, bilmishman,
Ki mehnat subhi bo'lmush qoqumung, g'am shomi sinjobing. [1.378]

Yana shuni aytish mumkinki, g'azal janrida ishqiy mavzuning qo'yilishi va hal etilishi barcha g'azalnavislarning falsafiy va axloqiy dunyoqarashi bilan uzviy aloqador bo'lib, ko'proq dunyoviy ma'shuqaning fazilatlarini ulug'lashga qaratilgan. Mazkur taxmisda ana shu holat birmuncha to'liqroq namoyon bo'ladi. Chunki bu mavzu Navoiyning o'zida yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. Shoir muayyan bir mavzu doirasida yana bir boshqa masalalarga ham murojaat etish yoxud ishora qila bilish darajasidagi san'atkor bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, uning she'rlari muhabbat nuri bilan yo'g'rilgan holda serqirra mohiyat va salmoq kasb etgan. Amiriy buni chuqur anglagan va shu g'azal darajasidagi go'zal bir she'rni dunyoga keltirgan.

Muxammas janrining imkoniyatlari birmuncha chegaralangan. Taxmis bitayotgan shoir g'azal muallifining mazmunda yetkazib bermoqchi bo'lgan asosiy g'oyasidan chiqib ketishi yaralajak she'rning mazmuni va shakliga putur yetkazishi mumkin. Shunga ko'ra, g'azalga muxammas bog'lar ekan, shoir g'azal muallifi bilan teng bilim va iqtidorga, she'r bitish salohiyatiga ega bo'lishi, kerak bo'lsa, undan o'tkazadigan darajada she'r (uchliklar) yaratishi, bog'lanayotgan g'azalning bo'shliqlarini to'ldirishi, undagi ma'ni-mazmunni kuchaytirishi va kengaytirishi darkor. Hatto, shunday hodisalar kuzatilganki, u qadar mashhur bo'lmagan g'azallar muxammas bog'langandan keyin el aro shuhrat topib ketgan.

Ma'lumki, biror g'azalga taxmis bog'lagan shoir o'sha g'azalda aytilgan fikrlarni to'ldirishi zarur va shu g'azal darajasida asar yaratishi kerak.

Amiriy devonida Navoiy g'azallariga 24 ta va Kamol, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil, Zaliliy, Nobiy g'azallariga bog'langan bir necha taxmislar mavjud.

Amiriy taxmisleri, aytish mumkinki, hamma tomondan g'azallari asos bo'lgan mualliflar uslubi, dunyoqarashi, g'oyasi, badiiy ifoda vositalariga yaqinlashib boradi. Masalan, Alisher Navoiyning "Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushti o't" misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g'azaliga bog'langan taxmisda Amiriy mahoratining yana bir qirrasi namoyon bo'ladi. Navoiy qo'llagan romantik uslub, ifoda etayotgan hayotiy mazmun va samimiy ohang Amiriyga ilhom baxsh etadi, lirik qahramonning dard-u hasratlarini, ruhiy kechinmalarini, dil so'zlarini ifodalash vositasiga aylanadi. Bu taxmis mahbubaning beparvo va jafokor, sitam qiluvchi odatlaridan pajmurda bo'lgan oshiq holatining bayoniga oid. Binobarin, Navoiy lirik qahramonining ohu nolasidan o't yog'ilishi, bu o'tning ufqning qirmizlanishiga sabab bo'lishi, yor dardida oshiq ko'zi, badanining kuyishi kabi poetik tasvirlarni Amiriy yanada kuchaytirishni maqsad qilib olganligini g'azalga bog'langan misralar ko'rsatib turadi. Lirik qahramonning "dog'lik ko'ksi" o'tidan nafaqat zamin, balki osmon (kakhkashon – somon yo'li) ham kuyadi. Zero, hajr o'tlari oshiq boshiga "gardi balo"dek yog'ilar ekan, undan oshiq

ko'nglining o't ichra qolishi tabiiy. Buni Amiriy kul ichra vatan tutgan laxcha cho'qqa mengzaydi:

Soldi ko'ksim ichra o't bir sarvqaddu siymtan,
Yona-yona sham' yanglig' paykarim o'ldi tikan,
Tong emas, axgar kibi kul ichra gar qilsam vatan,
O'qlaring ko'nglumga tushdi – kuydi ham ko'z, ham badan –
Kim, kuyar ho'lu qurug', chun naysitong'a tushti o't. [1.368]

Navoiy g'azaliga bog'langan yana bir taxmisida Amiriyga xos so'z tanlash mahorati hamda go'zal va betakror tashbehlar silsilasiga qurilgan serma'nolik ko'zga yaqqol tashlanadi.

U ikki mushtari ko'zlar hiloli ichra jo o'lmish,
Iki bodomdurkim, boridin qoshlar duto o'lmish,
Tugunlar zulfunga solkim, tushib, bas, zeri po o'lmish,
Ko'ngullar xayliga xush-xush kezarga shohroh o'lmish,
Tarog' chekkan zamon yo'l-yo'li bo'ldi sunbuli nobing. [2.315]

Ko'zni – yulduzga, qoshni – hilol (yangi chiqqan oy)ga o'xshatish qadim an'ana. Ammo yuqorida qo'llangan tasvirlardagi yulduz yanglig' go'zal ko'zlarning oy ichida joylashishi, qaboq (bodomdek)larning yukidan qoshlar egilganligi, uzun sochlar oyoq ostida qolgandek (zeri po) taqimga tegib tebranishi yangicha tasvirni yuzaga keltiradi. Va bu holat tasviri Navoiy aytmoqchi bo'lgan fikr (uzun sochlar taralganda ko'ngil uchun katta yo'l ochilishi) ga muvofiq tushadi.

Yoki yana bir muxammasida Amiriy ustoz g'azalini har tomondan munosib beshlik shaklga keltirganini ko'rishimiz mumkin.

Nargising sha'nidadur, ey sho'x, afsun aylamak,
Ul sitamgarga ko'ngul naqdini topshurmak kerak,
Ko'rmadi bu gulshan ichra naxl qaddingdek falak,
Sarvdin qumri, ne tong, ram qilsa to'bodin malak,
Jilvayi had holatida e'tidolingni ko'rub. [1.366]

Ma'shuqaning ko'zlari haqida gap ketganda uning sho'xligi, afsun qiladigan sehrgar ekanligi, nargis guliga monandligi yodga olinadi. Yor jabr qiluvchi sitamgar, shu sitamgarga oshiq o'z ko'nglini topshirgan. Inson ko'ngli Alloh topshirilgandagina haqiqiy ishqqa giriftor bo'ladi. Mumtoz adabiyotda yor qaddi sarvga mengzaladi. Amiriy esa ma'shuqasi qaddini yosh niholga o'xshatgan. Yaratgan yaratqlari gulzori ichra oshiq uchun go'zalning yosh niholga monand qaddi falakda yagona. Navoiy yorning qaddini jannatdagi tik daraxtga qiyoslar ekan, bunday malakni ko'rsa qumri o'zi oshiq bo'lgan sarvdan yuz o'giradi. Amiriy so'z qo'llashda salaflari bilan tenglasha olishini g'azallarida, muxammaslarida ko'rishimiz mumkin. Badda yorning ko'zlari va qomati haqida so'z borganda Amiriy nargis, sho'x, afsun so'zlarini bir misraga joylay olgan. Mazkur so'zlar ko'zning shakl hamda xususiyatini ochib bergan.

Aytish mumkinki, Amiriy tomonidan Alisher Navoiy g'azallariga bog'langan taxmisilarning aksariyatida mana shunday hassos, ta'sirchan va purma'no misralar bor. Amiriyning Alisher Navoiy merosidan o'rganishi, undan mahorat sirlarini o'zlashtirishi hech qachon yuzaki taqlidchilik, nusxa olish darajasida bo'lmagan, ustoz tajribalaridan ruhlanib yaratgan asarlari esa shakliy o'xshashlik doirasidagina qolib ketmagan.

Navoiy Amiriy ijodiga ko'p va ho'p ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sirlarni Amiriy lirikasidagi Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslari hamda navoiyona yo'nalishdagi g'azallarida

ko'rishimiz mumkin. Ushbu muxammas ham Navoiy an'anasini davom etirgan holda mavzuni mutanosib shaklda davom ettirgani, misralarni o'z o'rnida qo'llay olganini ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiyga munosib, hamoxang tarzda muxammas yoza olish mahoratini ko'rsata olgan.

Bunday muxammaslarning adadi yigirma to'rtga boradi. "Aylasa" radifidagi Navoiy g'azaliga nazira, muxammas yozmagan shoir yo'q darajada. XVI-XIX asrlar orasida yashab, ijod etgan deyarli barcha mashhur qalam sohiblari bu g'azalga yo nazira, yo tazmin, yo taxmis yozganlar. Natijada shu g'azal vaznida, radifida, mavzuida yuzlab navoiyona g'azallar maydonga kelgan. Ba'zilar nazirai benazir, ba'zilar esa taqlidnamo she'rlar sifatida baholangan. Alisher Navoiyning bu g'azali o'n baytdan iborat bo'lib, aruzdagi eng o'ynoqi, ohangdor bahr - ramalning «ramali musammani mahzuf» vaznida yozilgan. Uning taqti'i (paradigmasi):

foilotun foilotun foilotun foilun

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

G'azalda Navoiy o'ta vafodor, ahdiga sodiq oshiqning yurak monologini, va'dalarini, aytish mumkinki, ishq yo'lidagi qasamyodini bergan. Oshiq har qanday mushkul sharoitlarda ham raqiblar qarshiligini sindirib o'z yoriga qalqon bo'lishga intiladi. Shu yo'lda u dahr-dunning zulmi, bedodlarning tazyiqiga ham chidashga tayyor. Bu uning komilligidan dalolat beradi. Amiriy shu g'azalning to'qqiz baytiga muxammas bog'lagan ko'rinadi. Uning muxammasi tarkibida Navoiy g'azalidagi yettinchi bayt:

Ofiyat jonimg'a yetti, ey xush ul, mug'kim meni,

Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa

uchramaydi. Tazmin muxammaschilikda bunday faktlar uchrab turadi. G'azalga tazmin bog'layotgan shoir g'azaldagi ba'zi baytlarni tushirib qoldirishi mumkin. Bu muxammasning eng afzal tomoni shundaki, o'zini ishq dunyosining amiri deb bilgan shoir oshiqona tuyg'ularini lirik qahramoniga ko'chirib, Navoiy lirik qahramoni tomonidan izhor qilingan samimiy tuyg'ularni rivojlantirgan, undagi yangi qirralarni ochishga muvaffaq bo'lgan. Amiriy ham salafi Navoiydek o'zi pok, dili pok, tili pok, niyati pok, yuzi pok ideal oshiq obrazini namoyon etganki, bunda tasavvufiy nazokat va ehtiroslar ham sado bergandek tuyuladi. Bu holatni Navoiy baytlariga qo'shilgan uchliklar payvandi orqali yaqqol his qilish mumkin:

Boshim o'lsun poymol ar tarki savdo aylasa,

Xira bo'lsun ko'z jamolingdin tabarro aylasa,

Jong'a o't tushsin bo'lak dilbar tamanno aylasa,

Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa,

Har ko'ngul ham kim sening shavqingni paydo aylasa...

Sendin o 'zga yor paydo aylasam chiqsun ko'zum,

G'ayr diydorin tamanno aylasam chiqsun ko'zum,

Gar party ruxsorig'a vo aylasam chiqsun ko'zum,

O'zgalar husnun tamosho aylasam chiqsun ko'zum,

O'zga bir ko'z hamki husnungni tamosho aylasa.

Necha vasfing bog'ida tutimisol o'lsun tilim,

La'li nobing sharhida shirinmaqol o'lsun tilim,
O'zgalar harfini insho qilsa nol o'lsun tilim,
G'ayr zikrin oshkoro qilsa lol o'lsun tilim,
Qaysi bir til hamki, zikring oshkoro aylasa. [1.364]

Amiriyning nashr etilgan "Devon"ga kiritilmay qolgan bir tazmin muxammasida uning Navoiy g'azallaridangina emas, balki dostonlaridagi obrazlardan ham ta'sirlanib misralar ijod etganligini ko'ramiz. Chunonchi, u bu muxammasida "Farhod va Shirin" dostonidagi qahramonlarni eslab Xusrav tog'qazuvchi Farhod ishqining qadriga qayerdan yetsin, deb yozadi. Kontrast tasvir orqali Farhodning ulug'ligini sharaflaydi. Amiriyning g'azal, muxammas, musaddas va tuyuqlarida Navoiy dostonlari va lirik asarlaridagi timsollarga, naqllarga, rivoyatlarga ishora qilib, ularga qiyoslab yaratilgan va badiiy ijodda talmeh deb atalgan san'at namunalari tez-tez uchratib turamiz. Amiriy Navoiy g'azallariga bog'langan ayrim muxammaslarida Navoiy g'azallarida kuylangan oshiq dardlarini izchil kengaytirib, uni sevgi qissasi darajasiga chiqarishga, sevgi, hijron va visol haqidagi qissani to'ldirishga erishadi. Uning «O'lmisham» radifli muxammasida shunday. Amiriyning Navoiy baytiga bog'lagan quyidagi uchligida Navoiy baytidagi mazmunga mos «Men mahbub firoqida qayg'ularimni devor ustiga naqsh etarman, devor-la turib sirimni oshkor etmoqchiman, shu umidda devor osha termulaman», deb oh chekadi. Bu tasvirda hayotda uchrab turgan hodisalardan ilhom olish, kuzatuvchanlik, ularni badiiy ijodda tasvirlash holatlari namoyon bo'ladi.

Furqatingdin naqsh etgaymen, so'zum devor uza,
Fosh etay dardim tasalli-chun, o'zum devor uza,
Telmurar vasling umidi-la ko'zum devor uza,
Kecha tengrang aylanib, kunduz yuzum devor uza,
Uylaki, parvonadin go'yo nomudor o'lmisham.
Bu muxammas besh banddan—beshlamadan iborat.

Taxmis bog'lash shoir ijodiy mahoratini belgilovchi bosh xususiyat hisoblanishi qiyin. G'azal har tomonlama pishiq-puxta bo'lsa-yu, unga bog'langan misralarning nuqsonlari ko'zga tashlanib tursa, baytlar mazmunini to'liq ochib berishga bo'ysundirilmasa yoki aksincha, g'azal anchayin sayoz bo'lgani holda, unga bog'langan misralar pishiq bo'lsa, har ikki holatda ham yaratilgan taxmisning Shuhrat topishiga umid qilib bo'lmaydi. Amiriy taxmisleri, shubhasiz, har ikki holatdan xoli, ya'ni taxmis uchun tanlangan g'azallar ham, unga bog'langan misralar ham badiiy jihatdan barkamol.

Ustozlar she'riyatining zamirida yashirin yotgan sirlarni ilg'ay bilgan, shu sirlar ta'siridan zavqlangan, yangidan yangi badiiy ifodalar yaratishga uringan. Amiriy biror shoir g'azaliga taxmis bog'laganda g'azal qofiyasi va uning tuzilishiga e'tibor qilish bilan birga, g'azalning ruhiga, unda yaratilgan timsollarning ma'naviy mazmuniga e'tibor bergan. Shu sababli, Amiriy taxmislarida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliydagi teran ma'nolar rivojlantiriladi.

Amiriy Navoiy g'azallariga eng ko'p muxammas bog'lagan ijodkor hisoblanadi. [4.21]

Demak Amiriy she'riyatida Navoiy g'azallariga tazmin muxammaslar badiiyatini o'rganayotganda tamomila dunyoviy, oddiy insoniy his-tuyg'ularni va kechinmalarni yuksak baadiyat bilan kuylangan lirikani tahlil qilishimiz va uning badiiy ta'sirini ochib berishga urinishimiz zarurdir.

References:

1. Amiriy. Devon. I. O'zbekcha she'rlar / Nashrga tayyorlovchilar: A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov.–Toshkent:Tamaddun, 2017. 364–406 b.
2. Amiriy. Devon. O'zbek tilidagi she'rlar / Nashrga tayyorlovchi: M.Qodirova.–Toshkent:Fan, 1972. 315-b.
3. В.Мўминова. Аваз Ўтар ўғли// Аваз ва унинг адабий муҳити. - Т.: “Фан”, 1987. - Б.127.
4. Жўрабоев О. Амирийнинг Навоий ғазалларига тахмислари хусусида. // Филология масалалари. 2005. №2-3. – Б. 21-27.
5. Мажидий Р. Огаҳий лирикаси. –Тошкент.: “Фан”, 1963. 89-бет
6. Т.Аҳмедов. Мунис. – Тошкент.: “Фан”, 1980. 14-бет.
7. Ҳайитметов.А. Адабий мросимиз уфқлари. – Тошкент.: “Ўқитувчи”, 1997. 45-бет
8. Қобилова З.Б. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол. фан. номз. дисс. ... – Тошкент, 2007. – 134 б.